



**LEPIDOPTERA TURKUMIGA MANSUB ZARARKUNANDALARNING
DOMINANTLIK DARAJASI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12092900>

Raximova Aziza Abduxalimdjanovna

q.x.f.f.d

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.

Esanbaev Shamsi

b.f.n.

Toshkent davlat agrar universiteti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Jizzax viloyatining "Baxmal", va Andijon viloyatining o'rmon xo'jalik bo'limlarida olib borilgan izlanishlar natijasi keltirilgan. Aniqlangan fitofaglarining taxlili bo'yicha 10 ta turi boshqalarga nisbatan ko'p uchraganligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar

O'rmon biotsenozi, Lepidoptera, fitofag, entomofag, bargo'rovchilar, arrakashlar, tunlamlar va ildiz zarakunandalari.

**СТЕПЕНЬ ДОМИНИРОВАНИЯ ВРЕДИТЕЛЕЙ ОТРЯДА
ЧЕШУЕКРЫЛЫХ**

Рахимова Азиза Абдухалимджановна

д.ф.с.х.наук.

Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий.

Шамси Эсанбаев

канд.б.н.

Ташкентский государственный аграрный университет.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен результат исследований, проведенных в лесном отделе "Бахмал" Джизакской области и лесных хозяйствах Андижанской области. Согласно анализу идентифицированных фитофагов, было отмечено, что 10 видов встречаются чаще, чем другие.

Ключевые слова

Лесной биоценоз, чешуекрылые, фитофаги, энтомофаги, листоеды, пыльпыльшики, совки и корневые вредители.



THE DEGREE OF DOMINANCE OF PESTS OF THE ORDER LEPIDOPTERA

A. A. Rakhimova

B. Doctor of Ph.D. in Agricultural Sciences.

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies.

Esanbayev Shamsi

Candidate of Biological Sciences. Tashkent State Agrarian University.

ABSTRACT

This article presents the result of research conducted in the Bakhmal forestry department of the Jizzakh region and forestry enterprises of the Andijan region. According to the analysis of identified phytophages, it was noted that 10 species are more common than others.

Key words

Forest biocenosis, lepidoptera, phytophages, entomophages, leaf beetles, sawflies, scoops and root pests.

Respublikamizning nafaqat qishloq xo'jaligi ekinlarida balki, o'rmon biotsenozlarida ham Lepidoptera turkum vakillarining yuzdan ortiq turlari uchrab katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda.

Mamlakatimiz qishloq xo'jalik ekinlarida, o'rmonzorlarda Lepidoptera turkumiga mansub; olma kuyasi-Yponomeuta malinellus Zell., olma mevaxo'ri - Laspeyresia pomonella L., yong'oq mevaxo'ri - Erschoviella musculana Ersch., barg parvonasi- Recarvaria nanella Schif., do'lana kapalagi - Aporia crataeqi L., daraxt sassiqxo'ri - Cossus-cossus L. kabilar uchrab manzarali va mevali daraxtlariga zarar yetkazadi. Shuningdek, katta (Sesia apiformis) va kichik terak oynadori (Paranthrene tabanifonnis Rott.) ham o'rmon xududlaridagi mevali bog'larda uchrab katta iqtisodiy zarar yetkazadi.

Biz dastlab tajribalarimizda O'zbekistonning ayrim o'rmon xududlari biotsenozida uchraydigan daraxt turlari va ularga zarar yetkazayotgan fitofag hasharotlarning turlari, biologik xususiyatlari, ular rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida mamlakatimizning eng yirik o'rmon xo'jaliklaridan biri hisoblangan Jizzax viloyatining "Baxmal" davlat o'rmon xo'jaligida (2017) kuzatishlar olib bordik. (1-jadval)

1-jadval.

Andijon o'rmon xo'jaliklarida ro'yxatga olingan zararli fitofag turlari.

(Andijon viloyati 2017-2020 yy.)

T №	Zararli fitofag turlari	Uchrash darajasi	Zararlangan daraxt turi	Zararlangan daraxt organi	Zararlavchi bosqichi
1	<i>Melolontha afflicta</i> Medv.	++	Terak, tol, qayrag'och	Ildizi	Lichinka
2	<i>Rhizogonus fortis</i> Reitt	+++	Olma, bodom	Ildizi	Lichinka
3	<i>Amphimallon glabripennis</i> Ball	++	Olma, yong' oq	Ildizi	Lichinka
4	<i>Epicometis turanica</i> Reitt	+++	Nok, olma, jiyda	Gullari	Imago
5	<i>Chrysobothris nana</i> Fairm.	+	Yong' oq	Shoxlari	Lichinka
6	<i>Agrilus pectinai</i> Obenb.	++	Namatak	Barg va shoxlari	Lichinka, imago
7	<i>Agrilus angustulus</i> Illig	+++	Tol, terak	Shoxlari	Qo'ng'iz
8	<i>Cerambycidae. Aeoletes sarta</i> Solsky.	+++	O'rik, yong' oq, tol, terak, jiyda, chinor, tut, qayrag'och.	Tanasi	Lichinka
9	<i>Rhopalopus nadari</i> Pic.	+	Olma	Tana va shoxlari	Lichinka
10	<i>Tranimum pilosum</i>	++	Olcha, olma, bodom	Tana, shoxlari, ildizi, bargi	Lichinka, Imago
11	<i>Xylomichus namanganensis</i> Heyd.	+++	Terak, olma, bodom, jiyda, tol	Tanasi va shoxlari	Lichinka
12	<i>Corygetus conirostr</i> Form.	+++	Butasimon daraxtlar	Bargi	Lichinka
13	<i>Phyllobius solskyi</i> Fst	++	Olma, yong' oq, bodom, namatak	Bargi	Lichinka
14	<i>Ipidae Scolytus</i> F.	++	Olma	Tana va shoxlari	Lichinka
15	<i>Scolytus tadzhikistanicus</i> Stark.	++	Olma	Tana va shoxlari	Lichinka
16	<i>Scolytus rugulosus v. mediterraneus</i> Egg	+++	Olma, shaftoli, Yong' oq, o'rik, bodom	Tana va shoxlari	Lichinkasi
17	<i>Hyponomeuta Malinelus</i> Zell.	+++	Olma	Barg	Lichinka
18	<i>Carpocapsa pomonilla</i>	+++	Olma, bexi	Meva	Lichinka
19	<i>Recarvaria nanella</i> Schiff.	++	Olma, o'rik, shaftoli, bodom	Meva, kurt	Lichinka

Shartli belgi: (+) kam uchraydi, (++) o'rtacha uchraydi, (+++) ko'p uchraydi.

O'rmon biotsenozida 171 dona hasharot aniqlanib, ularning 48 tasi 6 ta oilaga mansub ekanligi, 32 tasi esa parazit va 26 tasi yirtqich entomofag va qolgan 66 donasi butazor va begona o'tlarda yashovchi zararkunandalar ekanligi qayd etildi.

Keyingi kuzatishlarimizni Andijon davlat o'rmon xo'jaliklarida davom ettirdik. Biz dastlabki tadqiqotlarimiz davomida kuzatish olib borilayotgan xo'jalikda uchragan barcha hasharotlarni tur-tarkibiga ko'ra guruxlarga ajratdik (1-jadval).

Andijon davlat o'rmon xo'jaligi 25 ta xududga bo'lingan bo'lib, umumiy maydoni 12,97 ming gektarni tashkil qiladi. O'rmon xo'jaligi bo'limlarida o'tkazilgan kuzatuvlarda o'rmon daraxtlaridan archa, olma, bodom, kashtan, qayrag'och, terak, tol, o'rik, safora, eman, namatak, yong' oq kabilar ro'yxatga olindi. Tadqiqot va kuzatuvlarda ruyxatga olingan fitofaglarining uchrash darajasi, ular rivojlanayotgan o'rmon daraxt turlarining zararlangan qismi, zararkunandaning o'rmon daraxtlarini zararlash bosqichi aniqlanib borildi. Bunda daraxtlarning ildiz, tana va barg, meva va shoxlarida zarar keltiruvchi 19 xil turdagi zararkunanda aniqlandi. Aniqlangan fitofaglarining taxlili bo'yicha 10 ta turi boshqalarga nisbatan ko'p uchraganligi qayd etildi.

Andijon davlat o'rmon xo'jalik bo'limlaridan namlik yuqori bo'lgan xududlardagi kuzatishlarimizga ko'ra, bargo'rovchilar, arrakashlar, tunlamlar va ildiz zarakunandalari uchrashi aniqlandi. O'rmon daraxt-lariga zarar yetkazayotgan hasharotlar bilan birga, ularning 24 xil turdagi entomofaglari



uchrashi ham aniqlandi. Trichogrammatidae oilasi; Trichogramma pintoii, Temriophagum turlari, Braconidae oilasi; Apanteles spuriosus Wes., Anastatus disparis Rusch., Microgaster nemorum Hrtg., Pimpla inquisitor Scop., Heteropelma calcator Wes., Dendrosoter protuberans Nees., Bracon initiatellus Ratz., turlari Scelionidae oilasi; Cryptus insinuator Gr., Aphelinidae oilasi Encarsia partinopea, Chalcididae oilasi Brachymeria intermedia Chiropachus colon L., Rhaphitelus maculates Wlk. Ichneuminidae oilasi Litomastic trunkatellus Dall., Spathius erythrocephalus Wessen., Schreinneria zeuzerae Ashm., Icheumon abellei Berl., Tachinidae oilasi – Lydella nigripes Fall. kabi turlari ko'proq uchrashi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Сулаймонов Б.Б, Рахимова А.А., Эсанбаев Ш., Жумаев Р. А. Фитофаги и виды энтомофагов встречающиеся в лесном биоценозе. Актуальные проблемы современной науки, №1, 2021г.
2. Raximova A.A., O'rmon biotsenozida daraxt tanaxo'r zararkunandalari va ularga qarshi kurash. Экономика и социум №5(96)-2 2022.
3. A.Raximova Olma oynadori – Synanthedon myopaeformis zarari, tarqalishi va qarshi kurash choralari Agro ilm Agrar iqtisodiy ilmiy amaliy jurnali № 5 2022yil – B. 54-55.
4. A.Raximova O'rmon biotsenozda Lepidoptera turkumi vakillari populyatsiyasi sonini boshqarishda Trichogramma (Trichogrammatidae) turlarining ahamiyati. Tavsiyanoma. "Andijon nashriyot- matbaa" MChJ, 2021 yil
5. R.Jumayev. A. Raximova Analysis of scientific Research on Reproduction of Species of Trichograms in Biolaborotory // The American Journal of Agriculture And Boimedical Engineering Published: August 30, 2020 | Pages: 148-152